

Murojaatnomada belgilangan vazifalar ijrosi muhokamasi

Xorazm Ma'mun akademiyasida O'zR FA vitse-prezidenti S.Z.Mirzayev, FA Ilmiy kadrlar boshqarmasi boshlig'i A.Qayumov ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.



Yig'ilishda Murojaatnomaning mazmun-mohiyati, xususan, 2019-yil - "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da erishilgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy natijalar, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlanishi bejiz emasligi alohida gapirib o'tildi. Shuningdek, Murojaatnoma mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi barcha yo'nalishlarni qamrab olgani ta'kidlandi.

Bundan tashqari, FA vitse-prezidenti S.Z.Mirzayev Xorazm Ma'mun akademiyasi yosh olimlari bilan ham uchrashdi.

